

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RN	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RN	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IKTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmizayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ.....	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI.....	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'yumurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'ozdiyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLİYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR	386
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
SIFATLI TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA AHOLIGA QAMROVNI TA'MINLASHDA BOSHQARUV QARORLARINING AHAMIYATI	391
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA GIPERPARAMETRLARNI MATEMATIK OPTIMALLASHTIRISH USULLARI	396
Husan Arziqulov Normurod o'g'li	
ENHANCING THE SERVICE SECTOR AS A MEANS OF CREATING EMPLOYMENT IN TOURISM INFRASTRUCTURE	401
Zarikeev Rasul Polatovich	
EXPANDING BANK CREDIT OPPORTUNITIES FOR FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	406
Isakov Janabay Yakipbaevich	
BANKS' BROKERAGE AND ADVISORY SERVICES IN FACILITATING SECURITIES TRANSACTIONS AND IMPROVING MARKET LIQUIDITY	412
Isakov Isobek Janabay uli	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ	416
Ибрагимов Мансур Ахметович	
ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОСТРОЕНИЯ НОВЫХ ЦЕПЕЙ ПОСТАВОК	421
Маннапова Феруза Фахриддин кизи	
ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLİYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	428
Isroilov Obid Olimjonovich	
OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI	433
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHNING ISTIQBOLLARI.....	438
Djuraeva Didora Sobirjonovna	
ZAMONAVIY MOLIVAVIY INFRATUZILMANING INSTITUSIONAL ASOSLARI: TO'LOV TIZIMLARI NAZARIYASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	441
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI MENEJMENT VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	449
Zayaviddinova Nafisa Muxammadovna	
CORPORATE GOVERNANCE, FDI, AND URBANIZATION IN THE GREEN ECONOMIC TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN	454
Ablaeva Valentina	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND MICRO-ENTERPRISE DEVELOPMENT	460
Dilafroz Kuchkorova	
LEGIRLANGAN PO'LATLARDAN TAYYORLANGAN PROKATLASH JO'VALARINI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH UCHUN TERMIK PUXTALASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	466
Saydumarov Botir Muradovich, Berdiyev Darob Murotovich, Tashmatov Ravshan Qobilovich	
SHAMOL TURBINASINING IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATORI O'TKINCHI JARAYONLARINING TAHLILI	471
Bekishev Allabergen Yergashevich, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Yunusov Obidxon Abdivait o'g'li, Jo'rayev Doston Majid o'g'li	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	479
Babaxanova Dildora Rustamovna	
RAQOBAT USTUNLIGIGA ERISHISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	485
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARI, ULARNING MOLIVAVIY HISOBOTLARI VA AUDITIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	490
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	494
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	499
Sayfudinova Djamila Badridinovna	
AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHGA BAG'ISHLANGAN DASTLABKI ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING TAHLILI	503
Xamroyev Anvar Ashurovich	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI HAMDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	508
A.A.Abduvoxidov	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	518
Turmanqulov Norpo'lat Sa'dullayevich	
PERFORMANCE APPRAISAL FAIRNESS AND EMPLOYEE OUTCOMES IN UZBEKISTAN'S EDUCATIONAL INSTITUTIONS: A QUANTITATIVE INVESTIGATION	525
Farida Nishanova	
SANOAT KORXONALARIDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMLARINING ISHLAB CHIQARISH JARAYONIGA TA'SIRI	535
O'.M. Baytanov	



DIGITAL METHODS FOR MONITORING HAND HYGIENE AND AUTOMATIC NAIL SEGMENTATION USING COMPUTER VISION TECHNOLOGIES	540
Shavkat Shukhratovich Azimov, Temurbek Zokir Ugli Daminov, Durdona Nurjonovna Rasulova, Dilorom Umrzakovna Nalibaeva	
MATLAB-BASED OPTIMIZATION OF METHANE FEED INTAKE IN A GTL PLANT FOR SYNTHETIC FUEL PRODUCTION.....	545
U.T. Beshimov, U.R. Azamatov, A.G. Makhsumov, E.E. Mashaev	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОПТИМАЛЬНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ВЛОЖЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЗНАЧИМЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	554
Зайналов Ж.Р. , Абдуллаева С.Ш., Нурмухамедов А.М.	
INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA ONLAYN TEST VA AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMLARI: INNOVATION METODLAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA DOLZARB MUAMMOLAR TAHLILI.....	561
Nasriddinov Zaynobiddin Xusniddin o'g'li, Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich	
SERVOMOTORLARNING XARAKTERISTIKALARI	565
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Egamov Akmal Mamarasulovich, Mamarasulov Nodir Akmal o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	572
O'rinov Komiljon Kozimovich	
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISHDA SIFAT NAZORATINI OSHIRISHNI RAQAMLASHTIRISH YO'LLARI.....	576
Meliyev X.T.	
INVESTIGATION OF THE EFFICIENCY OF FATS AND OILS REMOVAL FROM WASTEWATER GENERATED BY PUBLIC CATERING ENTERPRISES	585
Durdona Obutjonova, Xayrullo Ibroximov, Ahmadjon Ibadullaev, Umar Chorshanbiev, Babaev Askar	
INSON KAPITALINING IQTISODIY MAZMUNI, UNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	591
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
HUDUDLARDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....	596
Azlarova Mushtariybegim Abror qizi	
NORASMIY BANDLIK VA DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI	600
Bozorova Ozoda Raximovna	



NORASMIY BANDLIK VA DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI

Bozorova Ozoda Raximovna

Tashkent International University mustaqil tadqiqotchisi

o.bozorova@renessans-edu.uz

ORCID: 0009-0003-3937-2872

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari yoritilib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlash hamda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda soliqlarning muhim ta'sir etuvchi omil sifatidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: norasmiy iqtisodiyot, bandlik, import, valyuta, soliq, ishchi kuchi, soliq imtiyozlari, preferensiyalar.

Abstract. This article examines issues related to improving tax administration and analyzes the role of taxes as one of the key factors influencing sustainable economic growth and the implementation of large-scale economic reforms in the country. The study highlights the importance of effective tax policy in supporting economic stability and development.

Keywords: informal economy, employment, import, currency, tax, labor force, tax incentives, preferences.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования налогового администрирования и анализируется роль налогов как одного из ключевых факторов, влияющих на устойчивый экономический рост и реализацию масштабных экономических реформ в стране. Подчеркивается значение эффективной налоговой политики для обеспечения экономической стабильности и развития.

Ключевые слова: неформальная экономика, занятость, импорт, валюта, налог, рабочая сила, налоговые льготы, преференции.

KIRISH

Norasmiy iqtisodiyot faqatgina noqonuniy faoliyatni anglatib qolmaydi. Bu tushuncha qonuniy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdan olingan pul mablag'lari yoki barter munosabatlari natijasida qo'lga kiritilgan daromadlarning rasmiy ravishda deklaratsiya qilinmasligini ham qamrab oladi¹.

Norasmiy iqtisodiyotga qarshi samarali choralar ko'rishning muhim jihatlaridan biri shundaki, davlatga to'lanishi lozim bo'lgan ayrim soliq tushumlari aynan ushbu sohada rasmiy iqtisodiy muomalaga to'liq jalb etilmay qolishi mumkin. Soliq tushumlari esa davlat va jamiyat farovonligini ta'minlash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish kabi muhim yo'nalishlarga yo'naltiriladi.

Norasmiy iqtisodiy faoliyat yuritayotgan ayrim subyektlarda soliq majburiyatlarini to'liq aks ettirmaslik yoki rasmiy hisobga olinmagan iqtisodiy operatsiyalar mavjud bo'lishi mumkin. Natijada davlat byudjetiga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ayrim mablag'lar rasmiy iqtisodiy tizimdan tashqarida qolib ketadi. Bu esa davlatning ijtimoiy

1 Н.О.Морозова, Метод измерения размера теневой экономики, образованной в результате введения налогов и субсидий: применение концепции излишков. (Экономический вестник Ростовского государственного университета. 2009 Том 7 № 1.



himoya, infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lipert va Uoker tomonidan norasmiy iqtisodiyotga qonun bilan taqiqlanmagan (qonuniy) tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdan olinadigan, biroq rasmiy ravishda qayd etilmagan daromadlar sifatida ta'rif berilgan. Ularning ta'kidlashicha, norasmiy iqtisodiy faoliyat pul yoki barter operatsiyalarida ifodalanadigan, biroq hisobga olinmagan barcha ishlab chiqarish (iqtisodiy) faoliyat turlarini o'z ichiga oladi va bunday faoliyat odatda aniqlangan taqdirdagina soliqqa tortiladi².

Shnayder va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi³. Unga ko'ra, soliq omili mamlakatda norasmiy iqtisodiyot kengayishiga ta'sir qiluvchi omillarning salmoqli qismini tashkil etadi. Norasmiy iqtisodiyot ko'lami va darajasi mamlakat soliq tizimining holati, shuningdek soliq ma'murchiligi samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda, ya'ni soliq tizimi va soliq ma'murchiligi yetarli darajada takomillashmagan sharoitlarda norasmiy iqtisodiyot nisbatan kengroq tarqalgan bo'lishi mumkin.

Mahalliy olimlardan Alimov va Toshev⁴ning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha, mamlakatda norasmiy iqtisodiyot ko'lamining kengayishi hududlarda yaratilgan milliy boylikni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida muayyan nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Aholi daromadlarining teng taqsimlanmasligi ijtimoiy muhitga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib, davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarish mexanizmlarining samaradorligini pasaytirishi ehtimoli mavjud. Bunday holatlar mamlakatning investitsion muhitiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

M.A. Qurbonovning fikriga ko'ra, norasmiy iqtisodiyot ayrim hollarda korrupsiya omillari bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishi mumkin. Shu bilan birga, korrupsiya ham norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga muayyan sharoitlar yaratishi mumkin. Jumladan⁵:

Birinchidan, norasmiy iqtisodiyot davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik yetarli darajada ta'minlanmagan sharoitlarda rivojlanishi mumkin.

Ikkinchidan, u siyosiy va iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi ayrim muvozanatsiz munosabatlar bilan bog'liq holda shakllanishi ehtimoli mavjud.

Uchinchidan, ayrim hollarda korrupsiya omillari iqtisodiy faoliyatni rasmiy tizimdan tashqarida olib borishga sabab bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, bunday jarayonlar norasmiy iqtisodiyotning yangi shakl va yo'nalishlari paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari norasmiy iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga qaratilgan kompleks iqtisodiy siyosat bilan uyg'un holda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim tadqiqotlarda qayd etilishicha, norasmiy iqtisodiyot subyektlari tomonidan olingan daromadlarning muayyan qismi rasmiy tizimdan tashqaridagi munosabatlarni saqlab turishga yo'naltirilishi mumkin. Demak, mamlakatda norasmiy iqtisodiyot darajasining yuqoriligi korrupsion risklarning ham ortishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasining 2021–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlari asosida mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi hamda aholi daromadlari dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek, norasmiy iqtisodiyotning soliqqa tortish tizimi va soliq ma'murchiligi bilan bog'liqligi ilmiy adabiyotlar hamda amaliy ma'lumotlar asosida o'rganildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, tegishli ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotda kichik biznes, xususiylar va oilaviy tadbirkorlik, tomorqa hamda dehqon xo'jaligi shakllarini rivojlantirish, shuningdek, so'nggi yillarda o'zini o'zi band qiluvchi maqomini joriy etish va ularni rag'batlantirish

2 Lippert O., Walker M. (1997) The Underground Economy: Global Evidence of its Size and Impact. The Fraser Institute Vancouver, British Columbia, Canada

3 Schneider F., Williams C.C. The Shadow Economy. The Institute of Economic Affairs, London 2013. P. 44.

4 Алимов Р.М., Тошев З.К. "Хуфиёна иқтисодиёт" - коррупция даражасининг орттишига таъсир кўрсатувчи омил сифатида. // Жамият ва бошқарув. - Тошкент, 2014. №1. 34-38б.

5 Қурбонов М.А. "Хуфиёна иқтисодиёт улушини солиқлар воситасида камайитиришда молиявий технологиялар амалиётини такомиллаштириш" Тошкент 2024 йил

orqali O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash hamda jismoniy shaxslar daromadlarini oshirish uchun turli imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholi daromadlari tarkibida kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va mustaqil bandlikdan olinadigan daromadlar ulushi yil sayin ortib borayotganini kuzatish mumkin. Bu jarayon iqtisodiy faollikning oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi nafaqat iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda, balki norasmiy bandlikni qisqartirish va daromadlarni rasmiylashtirish jarayonlarini ham jadallashtirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, o'zini o'zi band qiluvchi shaxslar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar mehnat bozorida yangi iqtisodiy imkoniyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Bunday sa'y-harakatlar natijasida aholining kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va mustaqil bandlikdan olinadigan daromadlari hajmi yil sayin ortib borayotganini statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston aholining iqtisodiy faolligi, bandligi va daromadlari bo'yicha tahlil⁶

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Mehnat resurslari (ming kishi)	18 488,9	18 666,3	18 829,6	18 949,0	19 142,3
Iqtisodiy faol aholi (ming kishi)	14 022,4	14 357,3	14 641,7	14 876,4	14 797,9
Iqtisodiyotda jami bandlar (ming kishi)	13 298,4	13 520,3	13 273,1	13 541,1	13 239,6
– davlat sektorida (ming kishi)	2 330,4	2 338,3	2 427,0	2 463,3	2 497,0
– nodavlat sektorida (ming kishi)	10 968,0	11 182,0	10 846,1	11 077,8	10 742,5
Aholining umumiy daromadlari (mlrd so'm)	185 036,5	220 811,8	282 762,5	346 461,4	401 501,5
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar (ming so'm)	5 810,0	6 817,6	8 580,0	10 317,4	11 728,8
Aholining real umumiy daromadlari (mlrd so'm)	175 273,8	201 709,9	240 587,5	302 507,2	355 531,3
Aholi jon boshiga real daromadlar (ming so'm)	5 503,5	6 227,8	7 300,2	9 008,4	10 385,9

1-jadvaldagi besh yillik ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda mehnat resurslari 2021-yilda 18,5 mln kishidan 2025-yilga kelib 19,1 mln kishini tashkil etganini ko'rish mumkin. Shulardan iqtisodiy faol aholi soni 2021-yilda 14,0 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 14,8 mln kishiga yetgan.

Ish bilan ta'minlangan aholi, ya'ni iqtisodiyotda jami bandlar soni tahlil qilinayotgan besh yillik davr mobaynida ma'lum darajada o'zgaruvchan bo'lgan. Jumladan, 2021-yilda 13,3 mln kishi, 2022-yilda 13,5 mln kishi, 2023-yilda 13,3 mln kishi, 2024-yilda 13,5 mln kishi hamda 2025-yil yakunlariga kelib 13,2 mln kishini tashkil etgan.

Mazkur o'zgarishlarni iqtisodiy jarayonlar bilan izohlash mumkin. Xususan, pandemiya davrida yuzaga kelgan global iqtisodiy qiyinchiliklar ayrim sohalarida bandlik ko'rsatkichlarining qisqa muddatli pasayishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralarining natijasida keyingi yillarda bandlik ko'rsatkichlarida barqarorlashuv kuzatilgan.

Bandlikni davlat va nodavlat sektorlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, davlat sektoridagi bandlik ko'rsatkichlari ko'rib chiqilayotgan davr davomida nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Aksincha, nodavlat sektorida bandlik darajasi ayrim yillarda o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lgan. Bu esa bozor sharoitida xususiy sektor faoliyatining iqtisodiy kon'yunkturaga sezgirligi bilan izohlanadi.

Aholining umumiy daromadlari bilan bog'liq ko'rsatkichlar esa iqtisodiyotda ijobiy o'sish jarayonlari davom etayotganini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, pandemiya davriga qaramay, 2022-yilda aholi daromadlari 2021-yilga nisbatan oshgan. Xususan, aholi jon boshiga real daromadlar 2021-yilda 9008,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 10385,9 ming so'mga yetgan, ya'ni 115,3 foizga o'sgan.

6 Күрбонов М.А. “Хуфиёна иқтисодиёт улушини солиқлар воситасида камайитиришда молиявий технологиялар амалиётини такомиллаштириш” Тошкент 2024 йил



2-jadval. O'zbekiston aholisi daromadlarining iqtisodiy faol va band aholiga to'g'ri keluvchi miqdorlari bo'yicha tahlil⁷

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (ming so'm)	1 293,8	1 457,8	1 822,7	2 324,6	2 673,3
Har bir iqtisodiy faol kishiga to'g'ri keladigan daromad (ming so'm)	13 195,8	15 379,8	19 312,1	23 289,3	27 132,3
Har bir iqtisodiy faol kishiga to'g'ri keladigan oylik daromad (ming so'm)	1 099,6	1 281,6	1 609,3	1 940,8	2 261,0
Iqtisodiyotda band aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad (ming so'm)	13 914,2	16 331,9	21 303,4	25 585,9	30 325,9
Band aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oylik daromad (ming so'm)	1 159,5	1 361,0	1 775,3	2 132,2	2 527,2

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, har bir iqtisodiy faol kishiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar 2025-yilda 27 132,3 ming so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021-yildagi 13 195,8 ming so'mga nisbatan ikki barobardan ortiq oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2024-yilga (23 289,3 ming so'm) nisbatan ham ushbu ko'rsatkich 116,5 foizga o'sish sur'atini namoyon etgan.

Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiy faol aholi daromadlarining barqaror o'sib borayotganini hamda iqtisodiyotda yaratilayotgan daromadlarning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bu jarayon mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati va bandlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, nodavlat sektorida bandlik ko'rsatkichlari ayrim davrlarda o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lganini kuzatish mumkin. Masalan, ushbu sektorda band aholi soni 2019-yilda 11,1 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 10,7 mln kishiga kamaygan, ya'ni 0,4 mln kishiga qisqargan. Bu holat global iqtisodiy qiyinchiliklar, xususan pandemiya davrida iqtisodiy faollikning vaqtinchalik pasayishi bilan izohlanadi.

Mazkur vaziyatdan ikki xil iqtisodiy xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida ayrim xususiy korxonalar faoliyat hajmini qisqartirishi natijasida bandlik darajasining kamayishi kuzatilishi mumkin. Ikkinchidan, ayrim hollarda rasmiy bandlikning qisqarishi norasmiy bandlik shakllarining kengayishi bilan ham bog'liq bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, bandlikni rasmiylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish soliq bazasini kengaytirish hamda soliq tushumlarini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali soliq majburiyatlarining bajarilishini avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish va nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarga qo'shimcha mablag'lar tushumini ta'minlashga xizmat qiladi.

Soliq to'lovchilarning hisob yuritish bo'yicha axborot tizimlari belgilangan muddat va davrlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni soliq organlariga avtomatik tarzda yuborish imkonini beradi. Shuningdek, soliq organlari va bank tizimi o'rtasida soliq to'lovchilarning moliyaviy operatsiyalariga oid ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilishi soliq nazoratining samaradorligini oshiradi.

Natijada soliq to'lovchilar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar avtomatik tarzda hisoblab chiqiladi va soliq to'lovchiga tasdiqlash uchun tayyor hisob-kitob shaklida taqdim etiladi. Ushbu jarayonning avtomatlashtirilishi soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratib, soliq hisobini yuritish jarayonini soddalashtiradi hamda ma'muriy xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish norasmiy iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish, soliq intizomini mustahkamlash va iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirishga ham xizmat qiladi. Natijada davlatning fiskal siyosatini samarali amalga oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish uchun barqaror moliyaviy manbalar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ATABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги «Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 4389-сон қарори <https://lex.uz/docs/4415356>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги «Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 5116-сон Фармони <https://lex.uz/docs/3271159?ONDATE=25.10.2024&ONDATE2=30.03.2018&action=compare>

⁷ Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланган.



3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги «Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида»ги 5468-сон Фармони <https://lex.uz/uz/docs/3802378>
4. Ioana M. PETRESCU, 2016. "[The Effects of Economic Sanctions on the Informal Economy](#)," [Management Dynamics in the Knowledge Economy](#), College of Management, National University of Political Studies and Public Administration, vol. 4(4), pages 623-648, December.
5. Alm, J., G. H. McClelland and W. D. Schulze (1992). Why Do People Pay Taxes? *Journal of Public Economics*. 48: 21-48.
6. Torgler, B., I. C. Demir, A. MacIntyre and M. Schaffner. Causes and Consequences of Tax Morale: An Empirical Investigation, *Economic Analysis & Policy*. 38: 3 13-339.
7. Schneider, F. and Buehn, A.. 2018. Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. *Open Economics*, 1(1), pp.1-29.
8. Lippert O., Walker M. (1997) *The Underground Economy: Global Evidence of its Size and Impact*. The Fraser Institute Vancouver, British Columbia, Canada
9. Қурбонов М.А. "Хуфиёна иқтисодиёт улушини солиқлар воситасида камайитиришда молиявий технологиялар амалиётини такомиллаштириш" Тошкент 2024 йил

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100